V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

KAXXOROV AZIZBEK ESANOVICH

BIOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHDA VA ULARNING TURG‘UNLIGINI O‘RGANISHDA KECHIKISHLI VOLTERRA TENGLAMALARI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 517.925.4

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

KAXXOROV AZIZBEK ESANOVICH

BIOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHDA VA ULARNING TURG'UNLIGINI O'RGANISHDA KECHIKISHLI VOLTERRA TENGLAMALARI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PhD/FM670 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http://kengash.mathinst.uz) va "ZiyonNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xusanov Jumma Xusanovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Durdiyev Durdimurod Qalandorovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mamadaliyev No'monjon Olimjonovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Ulyanovsk davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "07" may soat 17:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 207-91-40, website: www.mathinst.uz, e-mail: kengash@mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (182-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "19" aprel kuni tarqatildi.
(2024 yil "19" apreldagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Volterra tenglamalarini o‘rganish va ularning amaliy masalalarni yechishda qo‘llash differentsial tenglamalar nazariyasi va uning fan va texnikaning turli sohalarida qo‘llanilishida muhim o‘rin tutadi. Asosan, V. Volterraning bir asr oldin ishlarida biologik jamoalarning matematik nazariyasi, jumladan, yashash uchun kurashda ularning raqobatini modellashtirish va tegishli differentsial va integro-differentsial tenglamalarni sifatli tahlil qilish to‘liq asoslab berilgan. O‘sha vaqtdan beri differentsial tenglamalar bo‘limida bir qator ishlarda “Volterra sistemalar nazariyasi va qo‘llanilishi” mavzusi bo‘yicha katta hajmdagi tadqiqotlar va ko‘plab monografiyalar, darsliklar, ilmiy va ommabop maqolalarda taqdim etilgan. Bu biologiya, ekologiya, tibbiyot, iqtisod, ijtimoiy tadqiqotlar, tarix va radiofizikadagi turli jarayonlar Volterra turidagi tenglamalar asosida modellashtirishga keltirilishi bilan izohlanadi.

Volterra turidagi va shunga o‘xshash matematik modellarga atrof-muhit ifloslanish modeli, sinfiy kurash modeli, qadimgi ovchilar-yig‘uvchilar jamiyati modeli, harbiy harakatlar modeli, yuqumli virusli kasallik modeli, epidemiyalarning tarqalish modeli, shu jumladan kompyuterlarning virus dasturlarini yuqtirishi va viruslarning axborot tarmoqlarida tarqalishi, miyaning kognitiv va (yoki) hissiy rejimlarining o‘zaro ta’siri modeli kabilar keltiriladi. Ko‘pgina modellarni qurish va tahlil qilishning asosiy vositasi bichiziqli tipdagi avtonom differentsial tenglamalar bo‘lgan va bugungi kunga qadar bo‘lib kelmoqda. Biroq, bir qator zamonaviy amaliy masalalarda jarayonlarni modellashtirishda murakkabroq vaqtga bog‘liq kechikuvchili avtonom bo‘lmagan va bir nechta muvozanat holatiga ega bo‘lgan tenglamalarni tahlil qilish zarurati tug‘iladi. Bu masalalarni yechish maqsadli ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ilmiy va amaliy tatbig‘iga ega bo‘lgan fundamental va aniq fanlarga alohida e’tibor qaratildi. Uning muhim bo‘limlaridan biri differentsial tenglamalar hisoblanadi. Amaldagi qonun xujjatlarda “matematik analiz, differentsial tenglamalar nazariyasi, matematik fizika, matematik modellashtirish, algebra va turg‘unlikning matematik nazariyasi” bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda turg‘unlik nazariyasi tadbiq etiladigan differentsial tenglamalar sifat nazariyasi bo’yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4387-son qarori

son Qarori va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘raganilganlik darajasi. V.Volterraning ishlari oddiy differentsial va integro-differentsial tenglamalar yordamida biologik jamoalarda populyatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni matematik modellashtirishga asos solgan. Ushbu ishlar ko‘plab tadqiqotlarda yanada rivojlantirilishi matematik biologiya va biofizikaning yaratilishiga olib keldi. Populyatsiya dinamikasining asosiy modellari mikrobiologiya, epidemiologiya va murakkab biologik tizimlari uchun asos bo‘ldi.

Oddiy differentsial tenglamalar asosida biologik tizimlarni modellashtirish va tahlil qilish bo‘yicha juda ko‘p ishlar orasida R.M. Mey, J.D. Murry, A.D. Bazikin, Yu.A. Pix, G. Yu.Riznichenkolarning ishlari ajralib turadi. Biologik populyatsiyalar dinamikasini tahlil qilish differentsial farq tenglamalar (G.E. Xatchinson, J.M. Smit, Yu.S.Kolesov) asosida modellarni qurish zaruratini keltirib chiqardi. Uzluksiz va qat’iy kechikuvchili differentsial tenglamalar nazariyasida Volterra tenglamalarini qo‘llash bo‘yicha fundamental natijalar S. Serovayskiy, O.L. Edelstein-Keshet, F.A. Rihanning monografiyalarida keltirilgan. F.A. Rihanning monografiyasida matematik biologiyada keyingi tadqiqotlar uchun muhim vosita bo‘lgan funksional-differentsial tenglamalarni yechishning sonli usullarini keltirib o‘tilgan.

Volterra modeli iqtisodiyotda ham keng qo‘llaniladi. Iqtisodiy tizimlarning rivojlanishini tavsiflash uchun “yirtqich-o‘lja” modelinig qo‘llanilishi kelajakda muvozanat darajalarini aniqlash va boshqaruv koeffitsientlarini nazorat qilish orqali tizimni bir dinamik muvozanatdan ikkinchisiga o‘tkazish imkonini beradi. Ushbu model inqirozni boshqarishda, populistik va spekulyativ iqtisodiyotni o‘rganishda va innovatsion modellashtirishda qo‘llaniladi. Bir qator ishlar iqtisodiy-ekologik model asosida shahar infratuzilmasini rivojlantirishga bag‘ishlangan. Ushbu sohadagi ko‘plab tadqiqotlar orasida biz T. Puu, V.M. Glushkov, V.V. Poddubniylarning isharini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining disertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Matematika institutining “Tibbiy, biologik va fizik jarayonlarning matematik modellarini ishlab chiqish, tadqiqot, monitoring va prognozlashning matematik usullarini qurish” ilmiy yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi biologiya va iqtisod masalalarini modellashtirishda kechikuvchili Volterra modellarini rivojlantirish va ularni turg‘unligini sifatli tahlil qilish uchun Lyapunov funksionallar usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

biologiya va iqtisod masalalarida ma’lum bo‘lgan Volterra modellarini tahlil qilish va yangi matematik Volterra modellarini qurish, bunda modellashtirilgan jarayonning kechikuvchili, nochiziqli va statsionar bo‘lmaganligi hisobga olinadi;

modellashtiriladigan biologik, iqtisodiy va boshqa shunga o‘xshash jarayonlarning turg‘unligi va chegaraviy xususiyatlarini o‘rganish uchun Lyapunov funksionallarini qurish metodologiyasini asoslash;

Volterra turidagi tenglamalar yechimlarining muvozanat holati va chegaraviy xossalari uchun turg‘unlik shartlarini chiqarish;

kechikuvchili chiziqli bo‘lmagan nostatsionar tenglamalar bilan modellashtirilgan biologik tizimlar va jarayonlarning turg‘unligi va boshqaruvi bo‘yicha bir qator masalalarni yechish.

Tadqiqot obyekti biologik va iqtisodiy masalalarini matematik modellashtirishda Volterra turidagi nochiziqli, o‘zgaruvchan kechikishli tenglamalardan iborat.

Tadqiqot predmeti nochiziqli va avtonom bo‘lmagan funksional-differentsial tenglamalarga asoslangan matematik modellashtirish va mos modellarning turg‘unligini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada kechikuvchili tenglamalarga asoslangan matematik modellashtirish usullari, funksional-differentsial tenglamalarning sifat analizi va ularning turg‘unligi, matematik va funksional analizning tegishli bo‘limlari qo‘llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Lyapunov funksionallari usulini rivojlantirish doirasida kechikuvchi turidagi avtonom bo‘lmagan funksional-differentsial tenglamalarning turg‘unligini tekshirishda Lyapunov funksionallarini qo‘llashda modifikatsiyalangan teoremalar isbotlangan;

o‘zgaruvchan kechikishli Volterra turidagi vektor tenglamaning statsionar yechimining turg‘unligi, mumkin bo‘lgan yechimlar tuzilmalarini tahlil qilish asosida parametrga bog‘liq trivial yechimning asimptotik turg‘unlik va noturg‘unlik shartlari, hamda bir nechta koordinatalari nolga teng chegaraviy statsionar yechimning noturg‘unlik shartlari aniqlangan;

o‘zgaruvchan kechikuvchili bir va ko‘p o‘lchovli nochiziqli avtonom bo‘lmagan tenglama yechimlarining turg‘unlikka tekshirilgan hamda bunday ko‘rinishdagi tenglamalar Volterra turidagi tenglamalar bilan modellashtiriladigan jarayonlarning turg‘unlik masalasiga olib kelish mumkinligi isbotlangan;

o‘zgaruvchan kechikishli Volterra turidagi skalyar tenglama yechimining statsionar holatlarining turg‘unligi uchun yetarli shartlar topilib, misol tariqasida Xatchinson tipidagi nochiziqli tenglamaning turg‘unlik masalasi yechilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi. Biologik va iqtisodiy jarayonlarning turg‘unligi va boshqaruv masalalari yechimlarining sifat xususiyatlarini o‘rganish yangi metodologiya asosida asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik tasdiqlarning qat'iyligi va differentsial tenglamalarning turg'unlik nazariyasidagi ma'lum usul va natijalarni qo'llanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, chekli kechikishli, chiziqli va avtonom bo'lmagan funksional-differentsial tenglamalarning turg'unligini o'rganishda Lyapunov funksionallari usulini yanada rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin.

Tadqiqodning amaliy ahamiyati Volterra turidagi matematik modellarning turg'unligi va boshqarish masalalarini yechish uchun ishlab chiqilgan metodologiya Volterra turidagi va murakkab tenglamalar bilan modellashtirilgan tizimlar va jarayonlarning boshqaruv strukturasini qurishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Biologik va iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda va ularning turg'unligini o'rganishda kechikishli Volterra tenglamalari bo'yicha olingan natijalar asosida:

Lyapunov funksionallari yordamida funksional-differentsial tenglamalar yechimlarining turg'unligidan AAAA-A19-119072290002-9 raqamli "Kamchatkaning tabiiy ofatlari-zilzilalar va vulqon otilishi" mavzusidagi xorijiy grant loyihasida kechikuvchi turdagi differensial tenglamalar modellari yechimlarining limit to'plamini lokalizatsiya qilish masalalarida foydalanilgan (Vitus Bering nomidagi Kamchatka davlat universitetining 2023 yil 13-noyabrdagi №52-13-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijaning qo'llanishi kechikuvchili Volterra turidagi differensial tenglamalar yechimlarining turg'unlik masalalarni samarali yechish algoritmini ishlab chiqish imkonini bergan;

kechikuvchili Volterra differentsial tenglamalarini sifatli tahlil qilish va ularning turg'unligini tekshirishdagi Lyapunov funksionallaridan VF205.40 raqamli "Ilmiy tadqiqotlar uchun axborot tizimlarining bilim bazalari bilan ishlash vositalarini yaratish va ulardan foydalanish usullarini ishlab chiqish" mavzudagi xorijiy grant loyihasida yopishqoq-egiluvchan tebranma kasr dinamikasi uchun sifatli tahlil qilishning yangi usullari amalga oshirishda foydalanilgan (V.M. Glushkov nomidagi Kibernetika institutining 2024 yil 15-yanvardagi №1-M-sonli ma'lumotnomasi, Ukraina). Ilmiy natijaning qo'llanishi umumlashgan Dubovskiy modeli bo'yicha iqtisodiy inqirozlarning limit davrlarining sifat xususiyatlari va modellashtirilgan kechikuvchi turdagi differentsial tenglamalarning yechimlari topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan tashlik topgan. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“**Biologik va iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda kechikuvchili Volterra tenglamalari**” deb nomlangan birinchi bobning dastlabki ikki paragrafida tadqiqot ob’yekti biologik turlar va tirik tizimlarning o’zaro birgalikda mavjudligini va iqtisodiy jarayonlarning matematik modellarini modellashtirish va tahlil qilish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Matematik modellashtirishning ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlari ko‘p jihatdan kechikuvchili turdagi chiziqli bo‘lmagan funksional-differentsial tenglamalardan foydalanish bilan bog‘liq. Uchinchi paragrafda dissertatsiyada foydalanilgan bunday tenglamalarning turg‘unligiga oid asosiy tushunchalar keltirilgan.

Differentsial va integro-differentsial tenglamalarga asoslangan biologik jamoalarning matematik nazariyasining asosini italyan matematigi Vito Volterra yaratgan. Bir asr oldin uning ishlari nashr etilgan bo‘lib, ham amaliy, ham nazariy ekologiyaning rivojlanishida uning g‘oyalari naqadar teran va to‘g‘riligini tasdiqlab berdi.

Ikki biologik turning o’zaro mavjudligining amalda kuzatilgan ekologik jarayonlari asosida V. Volterra ikkita differensial tenglama ko‘rinishida ularning o‘zaro ta’sirining matematik modelini keltirib chiqardi.

Bunday jarayonning quyidagi modeli umumiy qabul qilingan:

$$\dot{N}_1 = (a_1 + b_{11}N_1 + b_{12}N_2)N_1, \qquad \dot{N}_2 = (a_2 + b_{21}N_1 + b_{22}N_2)N_2, \tag{1}$$

bu yerda N_1 va N_2 - turlar soni, a_1 va a_2 – har birining alohida-alohida ko‘payishi yoki kamayishi koeffitsientlari, sistemaning o‘ng tomonidagi $b_{12}N_1N_2$ va $b_{21}N_1N_2$ tashkil etuvchilar turlararo o‘zaro ta’sirga mos keladi, shuning uchun b_{12} va b_{21} belgilar ikki turdagi individlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’siriga bog‘liq, $b_{12} < 0$ va $b_{21} < 0$ raqobatda, $b_{12} > 0$ va $b_{21} > 0$ simbiozda, $b_{12}b_{21} < 0$ “yirtqich va o‘lja” tizimida. $b_{11}N_1^2$ va $b_{22}N_2^2$ hadlar turlar ichidagi raqobatni ifodalaydi, shuning uchun $b_{11}, b_{22} < 0$.

Undan tashqari V. Volterra modellarda mos funksiyalarning $N_1, N_2, ..., N_n$ bo‘yicha chiziqli bo‘lgan (klassik Volterra modellar) n turlarning o‘zaro ta’sirlarini umumiyroq modellarini o‘rgangan. Matematik jihatdan ular turlararo o‘zaro ta’siri quyidagi shakliga ega

$$\dot{N}_i = \left(a_i + \sum_{j=1}^{n} b_{ij}N_j \right) N_i, \quad i = 1, 2, \ldots, \tag{2}$$

bu yerda a_i - boshqa turlar mavjud bo‘lmaganda i -populatsiyaning tabiiy o‘sishi yoki o‘lim koeffitsienti; b_{ij} $(i \neq j)$ -koeffitsientlar, shuningdek, j -turning i -ga ta’sir intensivligini aks ettiradi; $b_{ii} \leq 0$ koeffitsientlar tur ichidagi raqobatning intensivligini ifodalaydi.

(2) tenglamalar klassik Volterra modeli hisoblanadi. Keyinchalik, ya’ni hozirgi vaqtda chiziqli bo‘lmagan turning biologik o‘zaro ta’sirlashuv modeli klassik modelni umumlashtirish sifatida o‘rganilmoqda

$$\dot{N}_i = \left(a_i + \sum_{j=1}^{n} b_{ij} f_j (N_j) \right) d_i (N_i), \quad i = 1, 2, \ldots, n \ , \tag{3}$$

bu yerda $d_i(N_i) \in C^1$, $i = 1, 2, \ldots, n$ -funksiyalar va $f_i(N_i) \in C^2$, $i = 1, 2, \ldots, n$ - funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi

$$N_i \geq 0 \text{ da } f_i(0) = 0, \ \dot{f}_i(N_i) > 0 \ ,$$

$$N_i > 0, \ i = 1, 2, \ldots, n \text{ da } d_i(0) = 0, \ d_i(N_i) > 0 \ .$$

(1) - (3) tenglamalar bilan aniqlangan modellarda ko‘payish va o‘lim jarayonlari bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lishi va populyatsiya tashqi sharoitlarning har qanday o‘zgarishiga darhol reaktsiyaga kirishishi qabul qilinadi. Biroq, haqiqiy bio va ekotizimlarda ma’lum sabablarga ko‘ra yuzaga keladigan individlarni tartibga solishda ayrim kechikish sodir bo‘ladi: urug‘langan tuxumdan har qanday katta yoshli individning rivojlanishi; har yili emas, faqat yilning ma’lum vaqtlarida ko‘payish; ko‘payish va o‘limning turli intensivligi turli yosh guruhlarida farq qiladi.

Tashqi salbiy jarayonlar erta yosh bosqichlariga eng kuchli ta’sir qiladi va ularning intensivligi kattalar soniga bog‘liq, shuning uchun oldingi avlod individlari tabiiy o‘sish tezligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

$h_j > 0, \ (j = 1, 2, \ldots, n)$ kechikuvchilikni hisobga olgan holda, ya’ni har bir turning boshqalar bilan o‘zaro munosabatdagi ishtirokiga bog‘liq bo‘lib, shuningdek, tur ichidagi raqobat n turlarning o‘zaro mavjudligi quyidagi ko‘rinishni qabul qiladi:

$$\dot{N}_i(t) = \left(a_i + \sum_{j=1}^{n} b_{ij} f_j \left(N_j(t) \right) + \sum_{j=1}^{n} g_{ij} f_j \left(N_j(t - h_j) \right) \right) d_j \left(N_j(t) \right), \ \left(i = 1, 2, \ldots, n \right). \tag{4}$$

Ekologik jarayonlar va tirik tizimlarni matematik modellashtirish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar (4) tenglamalarda vaqtga bog‘liq bo’lgan a_i, b_{ij}, g_{ij} koeffitsientlar va h_j kechikishni qabul qilish orqali ularni to‘g‘ri tavsiflash zaruriyatiga olib keladi.

Iqtisodiy tizim va jarayonlarni modellashtirishda kechikuvchi differentsial tenglamalardan ham foydalaniladi. Bugungi kungacha jahon adabiyotida kechikuvchi faktorini (iqtisodiy atama bo‘yicha vaqt kechikishi) hisobga olgan holda iqtisodiy jarayonlarni tavsiflashda ko‘plab yondashuvlar mavjud. Xususan, so‘nggi o’n yilliklarda iqtisodiyotda, shuningdek, fan va texnikaning boshqa sohalarida "yirtqich-o‘lja" turidagi kechikuvchi biologik tizim matematik modellashtirish uchun keng qo‘llanildi, bu iqtisodiy jarayonlardagi dinamikani tavsiflash imkonini beradi, ya’ni firmalar raqobatidagi muvozanat darajalarini topish, iqtisodiy tizimlarning turli parametrlarining xatti-harakatlarini prognoz qilish va rejalashtirish. Lotka-Volterra matematik modeli ko‘pincha iqtisodiy tizimlar dinamikasini tasvirlash uchun ishlatiladi. Vaqtning kechikuvini hisobga olgan holda tizimlarning matematik modellarining murakkabligi va chiziqli bo‘lmaganligi turli xil zamonaviy raqamli modellashtirish paketlaridan foydalanish zaruratiga olib keladi.

Xususan, ko‘plab raqobatdosh tovarlarga ega bozorning rivojlanishini tavsiflovchi kechikuvchili Valras-Marshall dinamik modeli (4) tenglamalar bilan mos keladigan modifikatsiyalangan Valras tenglamalari bilan tavsiflanadi

$$\frac{dP_i(t)}{dt}\cdot\frac{1}{P_i(t)}=\sum_{j=1}^{n} g_{ij}\left(Q_j^{(1)}\left(P_j(t)\right)-Q_j^{(2)}\left(P_j(t-h_j)\right)\right),\ i=1,2,\ldots,N,$$

bu yerda $P_i(t)$ – tovarning bozor narxi, $Q_j^{(1)}$ va $Q_j^{(2)}$ – bozordagi talab va taklif hajmi, h_j – tovarlarni yetkazib berish yoki boshqa omillar tufayli kechikishlar yoki vaqtdagi kechikishlar, g_{ij} – j -mahsulotga ortiqcha talabning i -mahsulot narxining o‘zgarishiga ta’sirini ifodalovchi doimiylar.

Biologik va iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish uchun zarur vosita kechikuvchi differentsial tenglamalardir. Birinchi bobning uchinchi paragrafida kechikuvchi turdagi funksional-differentsial tenglamalarning asosiy tushunchalari berilgan: tenglamaning ta’rifi; yechimning mavjudligi, uning yagonaligi, uzluksizligi va boshlang‘ich shartlarga bog‘liqligi. Yechimlarning chegaralanganligi turg‘unligiga ta’riflar berilgan va turg‘unlik masalalarini o‘rganishda Lyapunov funksionallari usulining asosiy qoidalari va teoremalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zgaruvchan kechikishli Volterra vektor tenglamasining turg‘unligi**” deb nomlanuvchi ikkinchi bobida (4) turdagi Volterra tenglamalari yechimlarining chegara xossalari masalasi modellashtirilgan jarayonning kechikishlari vaqtga bog‘liq deb faraz qilinadi. Masalaning qo‘yilish yangiligi: biologik turlarning o‘zaro ta’sirida kechikishlarning vaqtga bog‘liqligi haqida; ularning juftlik o‘zaro ta’sirining chiziqli bo‘lmagan funksiyalarining umumiyroq tasviri bo‘yicha farazlardan iborat.

Chiziqli bo‘lmagan tahlil uchun birinchi paragrafda o‘rganilayotgan tenglamaning yechimlarining chegara xossalari qismida bir nechta mashhur teoremalarning modifikatsiyasi kechikuvchi turidagi funksional-differentsial tenglamalarning tadqiqotida Lyapunov funksionallari usulida isbotlanadi.

Ikkinchi va uchinchi paragraflarda o‘zgaruvchan kechikishli Volterra vektor tenglamasining statsionar yechimlarining lokal bo’lmagan turg‘unligini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Aytaylik R^n – normasi $|x|$ bo’lgan x vektorlarning haqiqiy chiziqli vektorlar fazosi, $|x|^2=x_1^2+x_2^2+\ldots+x_n^2$, $R_+^n=\{x\in R^n : x_k\ge 0\ \ \forall k\in Z,\ 1\le k\le n\}$ $\operatorname{int}R_+^n=\{x\in R^n : x_k>0\ \ \forall k\in Z,\ 1\le k\le n\}$, $\partial R_+^n=R_+^n\setminus\operatorname{int}R_+^n$, $h_0>0$ – qandaydir son, C – normasi $\|\varphi\|=\max\left(|\varphi(s)|,\ -h_0\le s\le 0\right)$ bo‘lgan $\varphi:[-h_0,0]\to R^n$ uzluksiz funksiyalarning banax fazosi, $C_+=\{\varphi\in C:\varphi:[-h_0,0]\to R_+^n\}$, $\operatorname{int}C_+=\{\varphi\in C_+ :$ $\varphi_k(0)\ne 0\ \ \forall k\in Z,\ 1\le k\le n\}$, $\partial C_+=C_+\setminus\operatorname{int}C_+$ bo‘lsin.

$x:[\alpha - h_0, \beta) \to R_+^n \ (\alpha, \beta \in R^+, \ \alpha < \beta)$ uzluksiz funksiya uchun $x_t \in C_+$ funksiyani $x_t(s) = x(t+s) \ (-h_0 \le s \le 0)$ tenglik orqali aniqlaymiz. $\dot{x}(t)$ ga o‘ng tomon hosilasi tushuniladi.

Quyida kechikishli Volterra turidagi vektor tenglama ko‘riladi

$$\dot{x}(t) = D(x(t))\left(A + BF(x(t)) + GF(x(t - h(t)))\right), \tag{5}$$

bu yerda $D(x)$, $F(x)$ va $h(t)$ funksiyalar, undan tashqari A vektor va B va G matritsalar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

1) $D(x) = diag(d_1(x_1), d_2(x_2), \dots, d_n(x_n))$, $d_k \in C(R^+ \to R^+)$, $d_k(x_k) = 0 \Leftrightarrow$, $\Leftrightarrow x_k = 0$ $k = 1, 2, \dots, n$;

2) $F(x) = (f_1(x_1), f_2(x_2), \dots, f_n(x_n))^T$ (bu yerda va keyinchalik $(\bullet)^T$ – transponirlash amali), $f_k \in C(R^+ \to R^+)$, $f_k(x_k) = 0 \Leftrightarrow x_k = 0$, $k = 1, 2, \dots, n$;

3) $A = \{a_k\}$, $A \in R^n, B = \{b_{jk}\}$, $B \in R^{n \times n}$, $G = \{g_{jk}\}$, $G \in R^{n \times n}$;

4) $h = (h_1(t), h_2(t), \dots, h_n(t))^T$, $h_k \in C^1(R^+ \to [0, h_0])$, $h_k(t)$ – x_k, $\mu_0 \le \dot{h}_k(t) \le 1 - \mu_1$ $(\mu_1 > 0)$, $k = 1, 2, \dots, n$ nisbiy o‘sish tezligida kechikish mavjudligini hisobga oladigan funksiyalar.

(5) model tenglamasining komponentlari va parametrlari quyidagi ma’nolarni anglatadi:

x_k – ekologik tizimdagi k-populyatsiya soni yoki k-korxonaning mahsulotlari hajmi;

a_k и $d_k(x_k)$ – x_k miqdoriga qarab raqobatning yo‘qligida x_k nisbiy o‘sish tezligining tarkibiy qismlari;

$f_k(x_k)$ – umumiy resurslar uchun raqobatda populyatsiyalar yoki firmalarning o‘zaro birgalikda ta’sirlashuvidagi nisbiy o‘sish funksiyalari;

$h_k(t)$ – x_k nisbiy o‘sish tezligida kechikish mavjudligini hisobga oluvchi funksiyalar;

B va G – populyatsyalarning o‘zaro ta’sir yoki raqobat matritsalari.

Faraz qilaylik $f_k(x_k)$ va $d_k(x_k)$ $(k = 1, 2, \dots, n)$ funksiyalar $\forall x^{(1)}, x^{(2)} \in E(m)$, vektorlar uchun Lipshits shartini qanoatlantirsin

$$\left| f_k(x_k^{(2)}) - f_k(x_k^{(1)}) \right| \le L_0(m) \left| x_k^{(2)} - x_k^{(1)} \right|, \quad \left| d_k(x_k^{(2)}) - d_k(x_k^{(1)}) \right| \le L_0(m) \left| x_k^{(2)} - x_k^{(1)} \right| \tag{6}$$

bu yerda $E(m) = \{x \in R_+^n : |x| \le m, \ m = const > 0\}$.

Bundan har bir $(\alpha, \varphi) \in R^+ \times C_+$ boshlang‘ich nuqta uchun biror bir $[\alpha - h(\alpha), \beta)$ $(\beta > \alpha)$ oraliqda aniqlangan (5) tenglamaning $x_\alpha(\alpha, \varphi) = \varphi$ boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi $x(t, \alpha, \varphi)$ yechimi mavjud, yagona va (α, φ) ga bog‘liq uzluksizdir.

(5) sistema R_+^n sohada quyidagicha muvozanat holatlariga ega:

1. Trivial

$$x(t,\alpha,\varphi) = 0,\ t \ge \alpha - h; \tag{7}$$

2. $\operatorname{int} R_+^n$ sohada trivial bo‘lmagan

$$x(t,\alpha,\varphi) = x_0^{(l)},\ t \ge \alpha - h,\ l = 1,2,\dots,N. \tag{8}$$

muvozanat holati. Bu muvozanat holati quyidagicha

$$\left(B + G\right) y + A = 0 \tag{9}$$

chiziqli tenglamalar sistemasi $\operatorname{int} R_+^n$ sohada $y = y_0$ yagona yechimga ega, undan tashqari

$$F(x) = y_0 \tag{10}$$

funksional vektor tenglama $E(m) \cap \operatorname{int} R_+^n$ chegaralangan sohada chekli

$$x = x_0^{(l)};\ l = 1,2,\dots,N;\ N = N(m) \tag{11}$$

yechimga ega degan faraz asosida aniqlanadi.

3. Undan tashqari, $d_k(0) = 0\ (k = 1,2,\dots,n)$ tenglik o‘rinli ekanligidan (5) tenglama, ∂R_+^n sohada, bitta yoki bir qancha koordinatalari nolga teng bo‘lgan muvozanat holatiga ega.

(7) muvozanat holatining trivialligidan bevosita tahlil asosida quyidagi ikkita teorema isbotlangan.

1-teorema. $a_k < 0\ \ \forall k = 1,2,\dots,n$ shartga ko‘ra (7) trivial muvozanat holati asimptotik turg’un.

2-teorema. Agar shunday $a_k > 0$ mavjud bo‘lsa, u holda (7) trivial muvozanat holati turg‘un emas.

(8) trivial bo‘lmagan holat turg‘unligining yetarli shartlarini o‘rganishda $y = x - x_0^{(l)}$ ko‘rinishdagi ayirma va quyidagi mos funksiyalar kiritiladi:

$$\psi(s) = \varphi(s) - x_0^{(l)},\ \ f_k^{(l)}(y_k) = f_k\left(x_{k0}^{(l)} + y_k\right) - f_k\left(x_{k0}^{(l)}\right),$$

$$F^{(l)}(y) = \left(f_1^{(l)}(y_1), f_2^{(l)}(y_2),\dots, f_n^{(l)}(y_n)\right)^T,$$

$$D^{(l)}(y) = diag\left(d_1^{(l)}\left(x_{10}^{(l)} + y_1\right), d_2^{(l)}\left(x_{20}^{(l)} + y_2\right),\dots, d_n^{(l)}\left(x_{n0}^{(l)} + y_n\right)\right),$$

$$s_k(y_k) = \int_0^{y_k} \frac{f_k^{(l)}(\tau)d\tau}{d_k(\tau)},\ k = 1,2,\dots,n,\ S(y) = \left(s_1(y_1), s_2(y_2),\dots, s_n(y_n)\right).$$

$d_k(x_k)$ funksiyaga nisbatan (6) shartdan

$$y_k \to -x_{k0}^{(l)},\ \forall k = 1,2,\dots,n \text{ da } s_k(y_k) \to \infty \tag{12}$$

kelib chiqadi.

Faraz qilaylik, erkli o‘sish ko‘rsatkichlari a_k, $d_k(x_k)$ va turlararo va tur ichidagi o‘zaro tasirlarining tashkil etuvchilari matritsalari

$$A = \left\{a_k\right\},\ A \in R^n,\ B = \left\{b_{jk}\right\},\ B \in R^{n\times n},\ G = \left\{g_{jk}\right\},\ G \in R^{n\times n}$$

va $h = \left(h_1(t), h_2(t),\dots, h_n(t)\right)^T$ kechikishlar shunday bo‘sinki, bunda $p_1, p_2,\dots, p_n > 0$ doimiylar va $q_1(\tau), q_2(\tau),\dots, q_n(\tau)$, $q_k \in C\left(\left[-h_0, 0\right] \to R^+\right)$ funksiyalar bilan aniqlangan quyidagi matritsalar

$$Q^{(0)} = diag\left(q_1(0), q_2(0), ..., q_n(0)\right),$$

$$Q^{(1)} = diag\left(q_1\left(-h_1(t)\right)\left(1 - \frac{dh_1(t)}{dt}\right), ..., q_n\left(-h_n(t)\right)\left(1 - \frac{dh_n(t)}{dt}\right)\right)$$

$$Q^{(2)} = PA + A^T P + Q^{(0)} + q_0^{-1} PBB^T P$$

$$y^T Q^{(1)}(t) y \geq q_0 \| y \|^2, \ (q_0 > 0), \ y^T Q^{(2)} y \leq 0 \ \ \forall (t, y) \in R^+ \times R^n, \qquad (13)$$

baholanishlarni qanoatlantirsin.

Quyida keyingi teoremalar isbotlanadi.

3-teorema. Faraz qilaylik:

1) qandaydir $\delta > 0$ da $s_k(y_k)$ $(k = 1, 2, ..., n-1)$ funksiyalar uchun $s_k(y_k) > 0 \ \ \forall y_k \in \{0 <| y_k |< \delta\}$ tengsizlik o‘rinli bo‘lsin;

2) (13) tengsizliklar bajarilsin.

U holda (8) muvozanat holati tekis turg‘un bo‘ladi.

4-teorema. 3-Teoremaning 1-sharti bajarilganida va (13) tengsizliklardan ikkinchisi

$$y^T Q^{(2)} y \leq -q_0 \| y \|^2 \qquad (14)$$

ko‘rinishida kuchaytirilsa, (8) muvozanat holati tekis asimptotik turg‘un bo‘ladi.

5-teorema. Agar 4-Teoremaning birinchi shartining o‘rniga farz qilaylik, $y_k = 0$ ning ixtiyoriy yetarli kichik atrofida manfiy qiymatlarni qabul qiluvchi kamida bitta $s_k(y_k)$ funksiya mavjud bo‘lsa, u holda (8) muvozanat holati noturg‘un bo‘ladi.

Agar $s_k(y_k)$ funksiyaga nisbatan farazimizni quyidagi ko’rinishda

$$x_k \to \infty \ \ \forall k = 1, 2, ..., n \ \text{da} \ \ s_k(y_k) \to \infty \qquad (15)$$

to‘ldirsak va (12) munosabatlarni hisobga olsak, u holda quyidagi natijalar o‘rinli bo‘ladi.

6-teorema. 4-Teorema shartlarini yuqorida ko‘rsatilgan faraz va $\operatorname{int} R_+^n$ sohada (8) muvozanat holatining yagonalik sharti bilan to‘ldiramiz.

U holda bu muvozanat holati global tekis asimptotik turg‘un bo‘ladi.

7-теорема . Aytaylik:

1) (13) tengsizliklardan birinchisi hamda (14) tengsizlik o‘rinli bo‘lsin;

2) (15) shart bajarilsin.

U holda $x(t, \alpha, \varphi)$, $\varphi \in C_+$ yechimning har biri $t \to \infty$ da (8) muvozanat holatlarining biriga cheksiz yaqinlashadi. Ya’ni, $\exists x = x_0^{(l)} \in \operatorname{int} R_+^n$ bunda $t \to \infty$ da $x(t, \alpha, \varphi) \to x_0^{(l)}$.

Endi $(x_1, x_2, ..., x_m)$ $(1 \leq m < n)$ o‘zgaruvchilarining birinchi m tasi nol bo‘lmagan, qolgan $(x_{m+1}, x_{m+2}, ..., x_n)$ o‘zgaruvchilarning p $(p = n - m)$ tasi nolga teng bo‘lgan muvozanat holatini ko‘rib chiqamiz. Bu holatni o‘rganib chiqish uchun o‘zgaruvchilarni qayta aniqlaymiz.

Quyidagi:

$$y \in R_+^m, \ z \in R_+^p, \ \psi : [-h_0, 0] \to R_+^m, \ \theta : [-h_0, 0] \to R_+^p,$$

$$y=(y_1,y_2,\dots,y_m)^T=(x_1,x_2,\dots,x_m)^T,$$
$$z=(z_1,z_2,\dots,z_p)^T=(x_{m+1},x_{m+2},\dots,x_n)^T,$$
$$\psi=(\psi_1,\psi_2,\dots,\psi_m)^T=(\varphi_1,\varphi_2,\dots,\varphi_m)^T,\ \psi\in C_+^{(m)},$$
$$\theta=(\theta_1,\theta_2,\dots,\theta_p)^T=(\varphi_{m+1},\varphi_{m+2},\dots,\varphi_n)^T,\ \theta\in C_+^{(p)},$$
funksiyalarni va ularga mos:
$$|y|^2=y_1^2+y_2^2+\dots+y_m^2,\ \ |z|^2=z_1^2+z_2^2+\dots+z_p^2,$$
$$\|\psi\|=\sup\left(|\psi(s)|,-h_0\le s\le 0\right),\quad \|\theta\|=\sup\left(|\theta(s)|,-h_0\le s\le 0\right),$$
normalarni, undan tashqari:
$$A^{(1)}=\left(a_1,a_2,\dots,a_m\right)^T,\quad A^{(2)}=\left(a_{m+1},a_{m+2},\dots,a_n\right)^T,$$
vektorlarni,
$$B^{(11)}=\left\{b_{jk}^{(11)}\right\}=\left\{b_{jk};\ j,k=1,2,\dots,m\right\},$$
$$B^{(12)}=\left\{b_{jk}^{(12)}\right\}=\left\{b_{jk};\ j=1,2,\dots,m,\ k=m+1,m+2,\dots,n\right\},$$
$$B^{(21)}=\left\{b_{jk}^{(21)}\right\}=\left\{b_{jk};\ j=m+1,m+2,\dots,n,\ k=1,2,\dots,m\right\},$$
$$B^{(22)}=\left\{b_{jk}^{(22)}\right\}=\left\{b_{jk};\ j,k=m+1,m+2,\dots,n\right\},$$
$$G^{(11)}=\left\{g_{jk}^{(11)}\right\}=\left\{g_{jk};\ j,k=1,2,\dots,m\right\},$$
$$G^{(12)}=\left\{g_{jk}^{(12)}\right\}=\left\{g_{jk};\ j=1,2,\dots,m,\ k=m+1,m+2,\dots,n\right\},$$
$$G^{(21)}=\left\{g_{jk}^{(21)}\right\}=\left\{g_{jk};\ j=m+1,m+2,\dots,n,\ k=1,2,\dots,m\right\},$$
$$G^{(22)}=\left\{g_{jk}^{(22)}\right\}=\left\{g_{jk};\ j,k=m+1,m+2,\dots,n\right\},$$
matritsalarni,
$$f_k^{(1)}=f_k,\ \ d_k^{(1)}=d_k\quad(k=1,2,\dots,m),$$
$$f_k^{(2)}=f_{m+k},\ \ d_k^{(2)}=d_{m+k}\quad(k=1,2,\dots,p),$$
$$F^{(1)}=F^{(1)}(y)=\left(f_1^{(1)}(y_1),\ f_2^{(1)}(y_2),\dots,\ f_m^{(1)}(y_m)\right)^T,$$
$$F^{(2)}=F^{(2)}(z)=\left(f_1^{(2)}(z_1),\ f_2^{(2)}(z_2),\dots,\ f_p^{(2)}(z_p)\right)^T,$$
$$D^{(1)}=D^{(1)}(y)=diag\left(d_1^{(1)}(y_1),d_2^{(1)}(y_2),\dots,d_m^{(1)}(y_m)\right),$$
$$D^{(2)}=D^{(2)}(z)=diag\left(d_1^{(2)}(z_1),d_2^{(2)}(z_2),\dots,d_p^{(2)}(z_p)\right),$$
vektor va matritsali funksiyalarni kiritamiz.

Faraz qilaylik
$$\left(B^{(11)}+G^{(11)}\right)F^{(1)}+A^{(1)}=0 \tag{16}$$
chiziqli tenglamalar sistemasi $\operatorname{int}R_+^m=\left\{y\in R_+^m: y_1>0,y_2>0,\dots,y_m>0\right\}$ sohada yagona $F^{(1)}=F_0^{(1)}$ yechimga ega.

Bu holda
$$F^{(1)}(y)=F_0^{(1)}$$

funksional tenglama chegaralangan $E^{(1)}(\mu)\cap \operatorname{int} R_{+}^{m}$, $E^{(1)}(\mu)=\left\{y\in R^{m}: \left|y\right|\le \mu\right\}$ sohada

$$y=y_0^{(l)}: l=1,2,\ldots,N_1;\; N_1=N_1(\mu)$$

chekli sondagi yechimlarga ega.

Bunga ko‘ra, (5) tenglama quyidagi ko‘rinishdagi

$$y=y(t,\alpha,\psi,0)\equiv y_0^{(l)},\;\; z=z(t,\alpha,\theta,0)\equiv 0. \tag{17}$$

muvozanat holatiga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi muvozanat holatining turg‘unligi masalasini o‘rganamiz. $x=x_0=\left(y_0^{(1)},0\right)$ berilgan muvozanat holati bo‘lsin.

Quyidagi ayirmalarini, vektor va funksiyalarning kiritamiz

$$y^{(1)}=y-y_0,\;\; \psi^{(1)}(s)=\psi(s)-y_0,$$

$$F^{(11)}\left(y^{(1)}\right)=F^{(1)}\left(y^{(1)}+y_0^{(1)}\right)-F^{(1)}\left(y_0^{(1)}\right),\;\; D^{(11)}\left(y^{(1)}\right)=D^{(1)}\left(y^{(1)}+y_0^{(1)}\right),$$

$$u_k^{(1)}(y_k)=u_k\left(y_{0k}^{(1)}+y_k\right)\;\; (k=1,2,\ldots,m),$$

$$U^{(1)}(y)=\left(u_1^{(1)}(y_1),u_2^{(1)}(y_2),\ldots,u_m^{(1)}(y_m)\right)^T.$$

$$A^{(21)}=A^{(2)}+B^{(21)}F^{(1)}\left(y_0^{(1)}\right)+G^{(1)}F^{(1)}\left(y_0^{(1)}\right)$$

Quyidagi teorema to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil asosida isbotlanadi.

